



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



SOVET HOKIMIYATINING IJTIMOIY-IQTISODIY SOHADAGI QATAG'ON SIYOSATI VA UNING OQIBATLARI (1918-1938 YILLAR)

Mamirboev Sardor Xayrullayevich,

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti,

"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi tarix 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Maqolada Sovet hokimiyatining ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi 1918-1938yillarda qatag'on siyosati, O'zbekiston SSRda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda o'tkazgan qatag'on siyosati, iqtisodiy faoliyatni cheklashva boshqa shakllarda amalga oshirilganligi to'g'risida qarashlar va xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Sotsializm, Sho'ro tuzumi, kolxozlashtirish, Stalin, "aksilinqilobchi", NKVD, qatag'on, bolshevik

Annotation. The article presents views and conclusions about the policy of repression of Soviet power in the socio-economic sphere in 1918-1938, the policy of repression in the socio-economic spheres in the Uzbek SSR, restrictions on economic activity, and other forms.

Keywords. socialism, Schouroh regime, collective farm, Stalin, "counter-revolutionary", NKVD, repression, bolshevik

1918 – 1922-yillari Sovetlar respublikasida iqtisodni boshqar ishning harbiy usuli «harbiy kommunizm» siyosati o'rnatildi, xususiy mulkchilikni bekor qilish, pul-tovar munosabatlarini to'xtatish va sanoatni milliyashtirish, teng taqsimlashga asoslangan davlat tizimini o'rnatish, ish haqini oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'lash, shahar bilan qishloq o'rtasida to'g'ridan to'g'ri mahsulot almashinuvini yo'lga qo'yish bo'ldi. Fuqarolar urushining yakunlovchi bosqichi sobiq Rossiya imperiyasining chekka o'lkalari – Kavkazorti, O'rta Osiyo va Uzoq Sharqda sovet hokimiyatining o'rnatilishi bilan xarakterlana di. 1922-yil n oyaborda Qizil armiya Vladivostok shahrini olib, Tinch okeaniga chiqishi bilan Rossiyada Fuqarolar urushi, asosan, yakunlandi. 1922-yili amalga oshirilgan muhim tadbirdan biri SSSRning tashkil topishi bo'ldi. Millatlarning o'z huquqini o'zi belgilash tamoyilidan kelib chiqib, barcha respublikalar federativ davlatga teng huquqli a'zo bo'lib kirdilar. 1922-yil 30-dekabr kuni sobiq Rossiya imperiyasi hududida Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqi (SSSR) tashkil qilindi. Yangi iqtisodiy siyosat. 1921-yili sovet davlati kuchli iqtisodiy va siyosiy inqirozni boshidan kechirdi. Mamlakat vayron bo'lgan, sanoat ishlab chiqarishi keskin pasayib ketgan edi. Qurg'oqchilik Ukraina, Kuban va butun Volgabo'yini qamrab oldi. Qo'zg'olonlar ko'tarildi. Mashhur norveg sayyohi Fritof Nansen ochlarga amaliy yordam ko'rsatishni tashkil qildi. Uning hurmati va qat'iy iltimosi tufayli G'arb davlatlari och Rossiyaga yordam ko'rsatdi, minglab odamlarni o'limdan qutqarib qoldi. Mamlakatning og'ir inqiroz holati bolsheviklarni «harbiy kommu nizm» siyosatidan voz kechdi. Yangi iqtisodiy siyosat (ruscha NEP) o'tishga majbur qildi. NEPning mohiyati, bozor iqtisodiyotini qisman tiklash, iqtisodiy manfaatdorlik va xo'jalik hisobi asosida rivojlantirish edi NEP majburiy va vaqtinchalik tadbir bo'lib, bolsheviklar inqiroz tugashi bilan uni bekor qilishni ko'zlagan edi. NEP mamlakat xalq xo'jaligini tiklash, ishlab chiqarish va savdoni yo'lga qo'yish, og'ir iqtisodiy holatdan chiqib olish imkonini berdi. Ammo, NEP SSSRda «bozor





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



sotsializmining» o'rnatilishiga olib kelmadı. 1924-yili Vladimir Lenin vafot etgandan so'ng davlatda Iosif Stalin va uning safdoshlari asosiy rol o'ynay boshladi. 1927 – 1929-yillarda asta-sekin uni bekor qilish boshlandı. 1920-yillar oxiri – 1930-yillar boshida amalga oshirilgan eng muhim tadbir mamlakatni industrlashtirish bo'ldi. 1928 – 1932-yillarga mo'ljallangan birinchi besh yillik sovet rejali iqtisodiyoti davri boshlandı. Agrar mamlakatdan sanoati rivojlangan va kuchli harbiy davlatga aylanishni boshladi. Juda katta kuch va mablag‘ og‘ir sanoatni rivojlantirishga sarflandi. Shu yillari 1500 ta yirik sanoat korxonalari qurildi. 1928 – 1933-yillari SSSRda kollektivlashtirish deb nom olgan siyosat amalga oshirildi. Buning natijasida qishloqdagagi o‘ziga to‘q dehqonlar, yer egalarining barchasi mulkidan mahrum qilindi, ko‘pchiligi quloq sifatida qamaldi, surgun qilindi, qatl etildi. Kollektivlashtirish oqibatida 15 mln.ga yaqin dehqon o‘z yerlaridan surgun qilinib, bir necha millioni halok bo'ldi. Kollektivlashtirishning dahshatli oqibati shu bo'ldiki, SSSR tarixining oxirigacha mamlakat o‘zini o‘zi oziq-ovqat bilan ta'minlay olmadi. 1933-yilgi dahshatli ocharchilikda Ukraina, Kuban, Volgaboyi, Qozog‘istonda 7 mln.dan ortiq kishi ochlikdan vafot etdi. 1933–1937-yillarni qamrab olgan ikkinchi besh yillikda sanoat gurkirab o‘sib, SSSR uning ko‘rsatkichlari bo‘yicha dunyoda AQSHdan keyin ikkinchi o‘ringa chiqib oldi. 1938-yili boshlangan uchinchi besh yillikda, asosan, harbiy sanoat korxonalarini qurish rejalashtirildi. Savodsizlikni tugatish, yangi tipdag‘i sovet maktablari tizimini yaratish «madaniy inqilob» nomini oldi. Madaniy inqilobni amalga oshirish jarayonida ko‘plab milliy ziyorilar qatag‘on qilindi. Ta’lim tizimi to‘liq isloh qilinib, 1930-yili majburiy boshlang‘ich ta’lim joriy qilindi. Yukorida aytilganlarni umumlashtirib, xulosaga kelishimiz mumkinki, bo‘lardik, Sovet hokimiyatining siyosiy va ma’naviy , sohadagi zo‘ravonlik siyosati iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi zo‘ravonlik siyosati bilan chambarchas bog‘liq edi. Sovet hokimiyatining mulkdorlar va ulamolarga qarshi qatag‘on siyosati bir tomondan sovet mafkurasi va iqtisodiy tuzumini qarar toptirishga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan ularning mol-mulkini davlat hisobiga undirilishiga, uchinchi jihatdan esa sovet tuzumiga qarshi fikrlaydigan har qanday mustaqil fikr egasidan qutulish maqsadiga yo‘naltirilgan edi.

REFERENCES:

1. O‘rta Osiyoda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli harakat tarixi (1925-1935 yillar). Toshkent: “Fan”, 2024, 15-b.
2. “O‘zbekiston ovozi”, 1999 yil 13 may. Xalq xotirasi oldida bosh egamiz. Hujjatlar, ma’ruzalar, xotiralar, xatlar. Toshkent: “Sharq”, 2001. 6-7-8-betlar.
3. Suyunov D. X. Corporate governance mechanism: problems and solutions. Monograph // T.: Academia. – 2007. - T. 200.
4. Suyunov, D., and Elmurod Abdusattorovich Khoshimov. "Methodological aspects of assessing the effectiveness of corporate governance in joint-stock companies. Scientific electronic journal" Economics and innovation technologies " 2 (2018).
5. Suyunov D. H. The main problems of corporate governance and ways to solve them //EPRA International Journal of Economic Growth and Environmental Issues (EGEI) ISSN. – C. 2321-6247.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'YOYALAR



6. Suyunov D. H. The main problems of corporate governance and ways to solve them //EPRA International Journal of Economic Growth and Environmental Issues (EGEI) ISSN. – C. 2321-6247.
7. Suyunov D. K. Scientific Foundation For Implementation Of The Compliance Control System At Corporate Enterprises //The American Journal of Management and Economics Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 06. – C. 138-145.
8. Suyunov D. X., Xoshimov E. A. The main directions of development of the corporate governance system in Uzbekistan in modern conditions //Economics and Innovative Technologies. – 2019. – T. 2019. – №. 4. – C. 11.
9. Suyunov D., Kenjabaev A. Achievements And Problems in Further Development of The Digital Economy in UzbekistanScientific Considerations //Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research. – 2023. – T. 1. – №. 7. – C. 38-45.
10. Suyunov D., Kenjabaev A. Achievements And Problems in Further Development of The Digital Economy in UzbekistanScientific Considerations //Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research. – 2023. – T. 1. – №. 7. – C. 38-45.
11. Suyunov D. K. Scientific Foundation For Implementation Of The Compliance Control System At Corporate Enterprises //The American Journal of Management and Economics Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 06. – C. 138-145.
12. Suyunov D. X., Xoshimov E. A. The main directions of development of the corporate governance system in Uzbekistan in modern conditions //Economics and Innovative Technologies. – 2019. – T. 2019. – №. 4. – C. 11.
13. Suyunov D., Kenjabaev A. Achievements And Problems in Further Development of The Digital Economy in UzbekistanScientific Considerations //Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research. – 2023. – T. 1. – №. 7. – C. 38-45.
14. Suyunov D., Kenjabaev A. Scientific Approaches to The Analysis of the Experience of Foreign Countries on the Development of Entrepreneurship in The Service Field //Wire Insights: Journal of Innovation Insights. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 1-7.
15. Suyunov, D., and Elmurod Abdusattorovich Khoshimov. "Methodological aspects of assessing the effectiveness of corporate governance in joint-stock companies.Scientific electronic journal" Economics and innovation technologies " 2 (2018).
16. Suyunov D. H. The main problems of corporate governance and ways to solve them //EPRA International Journal of Economic Growth and Environmental Issues (EGEI) ISSN. – C. 2321-6247.
17. Suyunov D. H. The main problems of corporate governance and ways to solve them //EPRA International Journal of Economic Growth and Environmental Issues (EGEI) ISSN. – C. 2321-6247.

